

Uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida

Alimov N.A., Yusupov R.M.
(JDPI dotsentlari)

Ta'lim hodisalari va omillari o'rtasidagi ichki zaruriy aloqalarni aks ettiruvchi didaktika qonunlari pedagogik faoliyatning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi. O'qitish va tarbiyalash jarayoniga turli xil omillar ta'sir ko'rsatishi tufayli didaktika qonunlari bir qiymatli, aniq natijani bermaydi, balki ehtimolli (bashorat qiluvchi) xarakterdagi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiyani amalga oshirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar didaktik tamoyillarda o'z aksini topgan. Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim uchun o'qitish tamoyillari tizimini takomillashtirishga urinishlar davom etmoqda. Ularning takomillashtirilishi tabiiy. Chunki ular qotib qolmagan, o'zida zamonaviy didaktika yutuqlarini sintezlashtiradi va ular ta'sirida doimo yangilanib boradi.

Asos bo'lib hisoblanuvchi va umume'tirof etilgan tamoyillar sifatida quyidagi tamoyillarni qayd etish mumkin:

- rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi o'qitish;
- madaniy va tabiiy muvofiqlilik;
- ilmiylik va nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- tartiblilik va ketma-ketlilik (uzviylik, yaxlitlik, istiqbollilik);
- onglilik va faollik;
- qulaylik;
- mustahkamlik;
- ijobiy motivatsiya.

Tartiblilik va ketma-ketlilik tamoyili har bir navbatdagi bilim va ko'nikmaning oldingisi bilan aloqasini ko'zda tutadi, bunda yangi eskini davom ettiradi. Uni bunday tushunish bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda, ammo shu bilan birga u ongda nafaqat tushuncha yoki qonunni, balki olamning yaxlit manzarasini aks ettirish bilan to'ldirilmoqda.

Tizimlilik va ketma-ketlilikka qo'yilgan talab eng avvalo o'qitish uzviyligini saqlashga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham o'qitish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mazmun, maqsad, metodlar, vositalar bo'yicha mantiqiy bog'langan tizim sifatida qurilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchi shaxsining istiqbolli rivojini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi eng muhim nuqta bo'lib, umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan oliy ta'limga o'tish, ya'ni "umumiy o'rta ta'lim maktabi → akademik litsey", "umumiy o'rta ta'lim maktabi → kasb-hunar kolleji", "akademik litsey → oliy o'quv yurti", "kasb-hunar kolleji → oliy o'quv yurti" tizimlari hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi, xuddi shuningdek akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisi o'quv-tarbiyaviy jarayon sub'ekti sifatida bir ta'lim tizimidan boshqa ta'lim tizimiga o'tadi. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan bir ta'lim turidan boshqa ta'lim turiga o'tish nuqtalarida uzviylikni ta'minlash o'ta muhim hisoblanadi.

Maktab o'quvchisi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisiga, xuddi shuningdek akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisi oliy o'quv yurti talabasiga aylanadi va o'qishga yangi talablar va uning tajribasi yetarli emasligi o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi, ya'ni maktab o'quvchisining akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisining oliy o'quv yurtiga moslashuvi muammosi paydo bo'ladi. "Umumiy o'rta ta'lim maktabi → akademik litsey", "umumiy o'rta ta'lim maktabi → kasb-hunar kolleji", "akademik litsey → oliy o'quv yurti", "kasb-hunar kolleji → oliy o'quv yurti" tizimlari uzviyligi mohiyatini o'quvchi shaxsining hayotiy o'zini-o'zi aniqlashda moslashishga va amaliy muloqotdan kasbga, dunyoqarash va axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan rivoji sifatida talqin etish mumkin.

Pedagogik adabiyotlarda uzviylik didaktik tamoyil sifatida qaralib uning o'rni va boshqa tamoyillar bilan aloqalariga turli xil yondoshuvlar mavjud.

Uzviylik tamoyili tizimlilik va ketma-ketlilik tamoyili bilan uzviy bog'liq, ammo faqat unga keltirilmasdan o'zining asosiy mazmunini saqlaydi. Uzviylikning boshqa o'qitish tamoyillari bilan aloqasi dialektikasi shundan iboratki, uzviylik texnologiyasi o'z navbatida uzviylikni amalga oshirish omili sifatida ishtirok etadigan o'quv-tarbiyaviy jarayonning boshqa tamoyillarini amalga oshirish sharti va mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan nuqtalarda uzviylik bu – o'quv-tarbiya jarayonining avvalgisi bilan dialektik aloqada va rivojlantiruvchi jarayon maqsadlari va masalalariga mos holda amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar ketma-ketligidir. Uzviylik muammosi negizi – bu ichki ziddiyat. Bu ziddiyatni tabiiy (maktab o'quvchisi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisi, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisi oliy o'quv yurti talabasi bo'ladi) va sun'iy (maktab va akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurti pedagogik ta'sirlari nomuvofiqligi natijasi) turlarga ajratish mumkin.

Uzviylikni ta'minlash esa qayd etilgan va boshqa shu kabi ziddiyatlarni bir-biridan va ularni bartaraf qilish yo'llarini farqlashni talab etadi.

O'qitishning diskret xarakterdaligi va pedagogik jarayon hamda uning natijasi yaxlitligini ta'minlash zaruriyati o'rtasidagi ziddiyatni hal etish qonuniyati pedagogikada uzviylikning asosiy tushunchasi va mohiyati bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni esa uzviylik tamoyili funktsiyalari, talablari va qoidalarida o'z aksini topgan.

Uzviylik funktsiyasi o'qitish jarayonini tashkil etish nazariyasiga mansub metodologik va uni amalga oshirish masalalarini o'zida aks ettirgan regulativ funktsiyalarga bo'linadi.

Metodologik funktsiya quyidagilarga bo'linadi:

- pedagogik jarayon dinamikasi qonuniyatlarini ularning birligi va qarama-qarshiligida aks ettiruvchi dinamik;
- pedagogik o'lchov sifatida, avvalgi, hozirgi va kelajakdagi o'zaro ta'sirlashuvdan tashkil topgan konstruktiv;
- o'quv-tarbiyaviy jarayon va uning natijasining yaxlitligini ta'minlovchi integrativ.

Regulativ funktsiyalarga quyidagilar kiradi:

- natijalar yaxlitligiga erishish maqsadida o'qitish mazmuni tuzilmasi o'zgarishi yo'nalganligini aks ettiruvchi tuzilmaviy – mazmunli;

- pedagogik tizim komponentlarining o'zaro bir-biriga bo'ysunishini aniqlovchi subordinativli;

- turli fan o'qituvchilarining o'zaro ta'sirlashuvi bilan bog'liq muvofiqlashtiruvchi.

Uzviylik tamoyilini amalga oshirish uning quyidagi talablariga rioya etish orqali ta'minlanadi va "o'qitish jarayoni qanday bo'lish kerak?" - degan savolga javob beradi.

Bizning nuqtai nazarimizda uzviylikning bosh talabi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- umumiy o'rta ta'lim maktabi va akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtida pedagogik harakatlar birligini saqlash;

- o'quvchi yoki talabada bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning metodlari va shakllarining maqsadga muvofiq keladigan birlashmasini va vositalarini optimal tanlash;

- o'quv va ishlab chiqarish amaliyotida o'zlashtirilgan bilimlardan uzluksiz foydalanish va uni rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- turli fanlar dasturlarining tematik va vaqt bo'yicha muvofiqligini ta'minlash.

Qayd etilgan talablarga mos holda uzviylik tamoyilini amalga oshirishning quyidagi asosiy qoidalarini shakllantirish mumkin:

- shaxsning kerakli sifatlari va faoliyati ko'rinishlari asosida yo'lni qadamba-qadam shakllantirish dasturini muvofiqlashtirish;

- shaxsning hozirgi holati va istiqboldagi rivoji o'rtasidagi ziddiyatni aniqlash;

- o'quvchi yoki talaba ongida avval to'plangan tayanch tushunchalar va harakat usullarini faollashtirish;

- ta'lim jarayonining tarmoqlanish (maktab → akademik litsey, maktab → kasb-hunar kolleji, akademik litsey → oliy o'quv yurti, kasb-hunar kolleji → oliy o'quv yurti) istiqbolini ko'ra bilish;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonda ongli ishtirok etish uchun o'qitishga ongli munosabatda bo'lishga imkon yaratish.

Uzviylikning quyidagi yo'nalishlarini ajratish mumkin:

- o'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari va talablari uzviyligi;

- shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalasi;

- maktab o'quvchilarining umumta'lim va akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining umumta'lim va kasbiy tayyorgarligi, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisi umumta'lim va kasbiy tayyorgarligi va oliy o'quv yurti talabasining umumiy va maxsus tayyorgarligi mutanosibligi;

- maktab o'quvchisini kasbga yo'naltirish va akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchisi va oliy o'quv yurti talabasini kasbiy shakllantirish jarayonlari mutanosibligi;

- o'qituvchi va tahsil oluvchining pedagogik o'zarota'sirlashuvi usul va vositalari mutanosibligi.

“Maktab → akademik litsey”, “maktab → kasb-hunar kolleji”, “akademik litsey → oliy o’quv yurti”, “kasb-hunar kolleji → oliy o’quv yurti” tizimlarida uzviylikni ta’minlash muammosini tadqiq etishning quyidagi ikki yo’li mavjud:

- “maktab → akademik litsey”, “maktab → kasb-hunar kolleji”, “akademik litsey → oliy o’quv yurti”, “kasb-hunar kolleji → oliy o’quv yurti” tizimlarida uzviylik xarakteriga ega bo’lgan o’quv jarayonini o’rganish;

- “akademik litsey → maktab”, “kasb-hunar kolleji → maktab”, “oliy o’quv yurti → akademik litsey”, “oliy o’quv yurti → kasb-hunar kolleji” tizimlarida uzviylik xarakteridagi o’quv jarayonini o’rganish.

Birinchi yo’l an’anaviy bo’lib, unga juda ko’p sonli tadqiqotlar bag’ishlangan. U o’quvchilarning keyingi o’qishga yoki mustaqil ta’lim olishga tayyorgarligini takomillashtirishni ko’zda tutadi. Ikkinchi yo’l esa eng avvalo “akademik litsey → maktab”, “kasb-hunar kolleji → maktab” tizimlari uchun akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda, “oliy o’quv yurti → akademik litsey”, “oliy o’quv yurti → kasb-hunar kolleji” tizimlari uchun oliy o’quv yurtlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishni ko’zda tutadi. Uzviylik muammosini hal etishga majmuaviy yondoshuv esa ta’lim oluvchi shaxsi rivojini ta’minlashga, ularning bilimlar tizimi va harakat usullarini egallashiga, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlardagi o’zgarishlarga moslashishga, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va oliy o’quv yurti kuchlarini birlashtirishga yo’naltirilgan akademik litsey va maktab, kasb-hunar kolleji va maktab, oliy o’quv yurti va akademik litsey, oliy o’quv yurti va kasb-hunar kolleji o’zarota’sirlashuvini taqozo etadi.

Ta’limni modernizatsiyalash amalga oshirilayotgan bugungi kunda uzviylikni ta’minlashning shaxsga yo’naltirilgan o’qitish g’oyasi, jamiyatni axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim kontseptsiyasi bilan bog’liq ko’pgina jihatlarini qayta ko’rib chiqish talab etiladi.

Uzviylik tamoyili pedagogik ma’noda – bu eng yaxshi natijaga erishish uchun o’quv-tarbiyaviy jarayonni qanday qurish lozimligini ifodalovchi pedagogik faoliyat qoidalari. Uzviylikni ta’minlash sharti asosida uzluksiz ta’lim tizimining (umumiy o’rta ta’lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o’quv yurti) jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivoji talablariga mosligi, pedagoglar kuch qudratining o’rganuvchi shaxsining har tomonlama rivojlanganligiga erishganligi yotadi.

Pedagogik harakatlar tizimi esa psixologiyaning fundamental qoidalariga tayanishi lozim. Pedagogik harakatlarni psixologo-pedagogik asosi esa quyidagi ikki eng muhim zamonaviy kontseptsiyada beriladi: aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi va aqliy faoliyatning assotsiativ-reflektorli tabiati. Shu bois ta’limda turdan turga o’tib boruvchi ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayonida maktab va akademik litsey, maktab va kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va oliy o’quv yurti pedagogik faoliyati muvofiqlashuvini ta’minlash muhim hisoblanadi. Chunki, aynan ular o’quv-bilish natijalarining elementar tuzilmasi birliklari bo’lib hisoblanadi.

O’quv-tarbiyaviy jarayon uzviyligini amalga oshirish esa jarayon yaxlitligini ta’minlovchi masalalar va o’quv-tarbiyaviy ishlar natijalariga mos keluvchi pedagogik tizimni qayta qurish yo’li bilan amalga oshirilishi mumkin. Buning bosh sharti bo’lib esa ta’lim mazmuni, metodlari va vositalari bo’yicha “maktab → akademik litsey”,

“maktab → kasb-hunar kolleji”, “akademik litsey → oliy o’quv yurti”, “kasb-hunar kolleji → oliy o’quv yurti” tizimlaridagi uzviylik hisoblanadi. Umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim o’quv-tarbiya jarayonining uzviylik xarakteri o’qitish metodlari uzviyligini ta’minlashi lozim. Odatda o’qitish metodi deganda o’qitish maqsadlarini, xuddi shuningdek pedagog harakat tizimini amalga oshirishga yo’naltirilgan va o’qitish masalalarini yechishni ta’minlovchi pedagog va ta’lim oluvchi faoliyati usuli tushuniladi. O’qitish metodini tanlashni amalga oshirish uchun esa qanday masalani va qaysi sharoitda u yoki bu metod yordamida muvaffaqiyatli yechish mumkinligini aniqlash lozim.

Bunda quyidagi ikki holatni e’tiborga olish lozim:

- ta’lim berishga oid istalgan masalani yechish uchun universal metod mavjud emas;

- hatto kimdir qayta ishlagan eng yaxshi metodni formal nusxalash ham kutilayotgan natijani beravermaydi.

Ammo, o’qitish metodlari va usullarini pedagogik jihatdan asoslangan holda tanlashning usullari ham mavjud: 1) tanlash birliklarini yiriklashtirish va oldindan tanlangan mezonlar (optimallashtirish nazariyasi va amaliyoti) dan kelib chiqqan holda ular sonini cheklash; 2) yanada yirik, yaxlit didaktik tuzilma, ya’ni zamonaviy o’qitish metodik tizimiga murojaat qilish.

Metodlarni tanlashning birinchi usuli ularni sinflashga asoslanadi.

Turli poydevorlar asosida bajarilgan bir necha xil sinflash variantlari mavjud.

O’qitish metodlari quyidagilarga ko’ra sinflanadi:

- bilimlar manbalari bo’yicha;
- o’qitish metodlari bo’yicha;
- o’quv faoliyatiga rahbarlik qilish usuli bo’yicha;
- o’quv jarayoni mantig’i bo’yicha;
- didaktik maqsadlari bo’yicha;
- ta’lim oluvchi faoliyati xarakteri bo’yicha.

Metodlarni tanlashning ikkinchi usuli alohida o’qitish metodini tanlashni emas, balki metodik tizimning yetakchi turini tanlashni ko’zda tutadi.

Hozirgi vaqtda quyidagi o’qitish tizimlari mavjud: axborot beruvchi – illyustrativ, algoritmik – dasturlashtirilgan va muammoli – izlanuvchi. Ularning har biri o’ziga xos maqsad, mazmun va metodlarga, ijobiy tomon va cheklanishlarga ega, ammo ular real sharoitda sof holda mavjud bo’lmaydi. Real o’qitish tizimida bu turlar turli kombinatsiyada birlashadi, ammo ulardan biri yetakchi bo’lib hisoblanadi.

U yoki bu yetakchi tizimni tanlash juda individual, ammo tajribali pedagog bunda ta’limning yetakchi maqsadini va mavzu yoki bo’limning aniq mazmunini, o’rganilayotgan materialning rivojlantirish imkoniyatini, ta’lim oluvchining tayyorgarlik darajasini e’tiborga olishi lozim.

Agar maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy o’quv yurti tizimida uzviylikning amalga oshirilishiga erishilsa, u holda o’quv-tarbiya jarayoni bir muncha samaraliroq kechadi. Ammo, hozirgi vaqtda maktab va akademik litsey, maktab va kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va oliy o’quv yurtida o’qitish metodlari va usullari bir-biri bilan o’zaro bog’langan. Pedagogik harakatlar birligi tantanali e’lon qilinsada, ammo amaliyotda ahyon-ahyonda bajariladi. Bunday nomuvofiqlikni bartaraf etishning usullaridan biri ta’lim tizimi tuzilmasini isloh qilish

hisoblanadi. Bu ta'lim jarayonining doimiy o'zgaruvchi sharoitga tez moslashuvchanligini, shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojini hisobga olishini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimida uzviylik muammosini tadqiq etishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilayotganligiga qaramay, hozirgi kunda u yanada keskinlashmoqda. Bu ta'limni modernizatsiyalash hamda o'zgaruvchi ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar bilan bog'liq.

Adabiyotlar

1. Babanskiy Yu.K. Izbrannoe pedagogicheskie trudy. – M.: Pedagogika.
2. Godnik S.M. Protsess preemstvennosti vysshey i sredney shkoly – Voronej.: Izd-vo Voronejskogo universiteta, 1981, - 236 st.
3. Davыdov V.V. Problemy razvivayushchego obucheniya. Opyt teoreticheskogo i eksperimental'nogo psixologicheskogo issledovaniya. – M.: Pedagogika, 1986.
4. Zagvyazinskiy V.I. Didaktika vysshey shkoly. – Chelyabinsk, 1990.
5. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obucheniya: Sovremennaya interpretatsiya: Ucheb. posobie dlya stud. vyssh. ped. uch. zavedeniy. – M.: «Akademiya», 2001.
6. Kustov Yu.A. Yedinstvo i preemstvennost' pedagogicheskix deystviy v vysshey shkole. - Izd-vo «Samarskiy universitet», 1993.
7. Alimov N.A. Matematik ta'lim turlari orasidagi uzviylikni ta'minlash // Xalq ta'limi, 2002 yil, № 5. 76-78 betlar.